

## Ona-tili va Adabiyot DTM testlari

1. Urgʻu haqidagi toʻgʻri fikrlarni aniqlang.

- 1) soʻzni gap tarkibidagi boshqa soʻzdan ajratish vazifasini bajaradi;
- 2) nutq ohangini tashkil etishda ishtirok etadi;
- 3) soʻz fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi;
- 4) turkiy soʻzlarda barqaror oʻringa ega;
- 5) soʻz urgʻusi frazaviy urgʻu deb yuritiladi;
- 6) urgʻu maʼno farqlash uchun xizmat qiladi

- A) 1, 2, 5, 6                      B) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
C) 1, 2, 3, 6                      D) 1, 4, 5, 6

2. "Yulduzim", "Yoʻl", "Tugʻilish" kabi sheʼrlar muallifini toping.

- A) Erkin Vohidov                      B) Asqad Muxtor  
C) Zulfiya                              D) Saida Zunnunova

3. 1) tunamoq;    2) asabiylashtirmoq;  
3) umumiylikda;    4) shildiroq;    5) yasovchi

Qaysi soʻzlarda soʻzga yangi maʼno beruvchi ikkita qoʻshimcha ishtirok etgan?

- A) 2, 3    B) 1, 4, 5    C) 2, 3, 4    D) 2, 4, 5

4. Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" asari haqidagi toʻgʻri maʼlumotlarni aniqlang.

- 1) Qofiyalarda, asosan, turkiy soʻzlar qoʻllangan.
- 2) Asarda faqat toʻq qofiyalar uchraydi.
- 3) Baʼzan shoir radifdan oldin qofiya keltirib oʻtirmaydi.
- 4) Asarda misralarni oʻzaro ohangdosh soʻzlar bilan yakunlashga qatʼiy amal qilingan.

- A) 2, 4    B) 1, 3    C) 1, 2, 3    D) 1, 2, 4

5. Omonimlik xususiyatiga ega boʻlmagan polisemantik soʻzlarni aniqlang.

- 1) davlat;    2) ogʻiz;    3) urush;  
4) boʻlmoq;    5) boʻgʻmoq;    6) dunyo

- A) 1, 2, 4, 6    B) 3, 5    C) 1, 2, 3, 6    D) 2, 4, 5, 6

6. "Alpomish" dostonida quyidagi soʻzlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?

Bu alplarni kuyov qilib olamiz, Mina elga toza erkin boʻlamiz.

Bolalarni togʻa-jiyan qilamiz, Mina elda bizlar davron suramiz

- A) Boysari                      B) Yortiboy oqsoqol  
C) Alpomish                      D) Barchinoy

7. "Rustamxon" dostonidan olingan quyidagi parcha kimning tilidan aytilgan?

Maydon boʻlsa bedov otlar topilar, Chopib kelsa banot jullar yopilar,

Men ham bildim, yoʻqchi boʻlib kelibsan, Gʻam yema begijon, yoʻgʻing topilar.

- A) Rustamxon                      B) Oftoboy  
C) qalandarlar                      D) Huroyim

8. Oʻzaro shakldosh birliklar ishtirok etgan juftliklar toʻliq koʻrsatilgan javobni toping.

- 1) Chaqmoq ovozidan osmon gulduradi. Yaxshi emas bironi bironva chaqmoq.
- 2) Oyogʻidagi tufflisi bilan yongʻoqlarni chaqishga harakat qildi. Ilon boshini baland koʻtarib, chaqishga tayyor turar edi.
- 3) Qaytar dunyo ekan-da, – dedi chol koʻzlarini yumib. Uni oʻz fikridan qaytar, iltimos.
- 4) Bu yerga koʻnglini boʻshatish, yengil tortish uchun kelgan edi. Uning koʻnglini boʻshatish, rahmini keltirish uchun koʻp yolgʻon gaplarni gapirdi.

- A) 1, 2, 4    B) 1, 3, 4    C) 1, 2, 3, 4    D) 1, 2

9. Nechta jarangsiz til undoshining jarangli jufti bor?

- A) 7 ta    B) 6 ta    C) 8 ta    D) 4 ta

10. Qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida bir keng unlining ikkinchi bir keng unliga almashinishi kuzatilgan gapni toping.

- A) Sovuqning shashti pasayib, quyosh yana nur sochdi.  
B) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda boʻlmaydi.  
C) Mehnat qilsang, koʻnglingga yorugʻlik tushadi.  
D) Odamlar sening chiroyingga, kiygan kiyimingga qarab emas, balki qilgan ishingga qarab baho beradilar.

11. g undoshining k undoshidan farqlovchi belgisi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) shovqinlilik                      B) til orqalilik  
C) portlovchilik                      D) jaranglilik

12. "Yozuvchi sifatida bir narsani anglab yetganman va bu qoidaga qat'iy amal qilaman. Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim. Shundagina uni kitobxon tan oladi, kitobini bag'riga bosib o'qiydi".

Ushbu parchada yasama otlarning nechitasi fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

- A) 5 tasi      B) 3 tasi      C) 4 tasi      D) 2 tasi

13. Jarangsiz jufti mavjud bo'lmagan til oldi undoshlarini aniqlang.

- A) r, l, n, y      B) l, m, r, n      C) r, l, n      D) x, h

14. Mirmuhsin qalamiga mansub "Ziyod va Adiba" asarining janrini ko'rsating.

- A) she'riy roman      B) hikoya      C) roman      D) qissa

15. Shirin-shirin gap o'rnida shirin-shirin ashuladan bo'lsin, opa.

Berilgan gapda ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nosi qaysi usulda ko'chgan?

- A) metonimiya                      B) sinekdoxa  
C) vazifadoshlik                      D) metafora

16. 1) Dam oladi kunduzi, xonadonning yulduzi.

2) Oyna emas jimirlar, tek turmasdan qimirlar.

3) Bir parcha patir, olamga tatir.

4) Kulib turar misoli oftob, Hamrohidir chang, tor va rubob.

5) Qizdirsang ishlar, kiyim tekislar.

Berilgan topishmoqlarning qaysi birida yopiq bo'g'inlar faqat jarangli undosh bilan tugagan?

- A) 1, 2, 5      B) 3, 5      C) 1, 3      D) 1, 2, 4

17. Adolatparvarlik so'zidagi undosh tovushlar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

A) Hosil bo'lish usuliga ko'ra bir umumiy guruhga mansub undoshlar 3 o'rinda qatnashgan.

B) Til oldi jarangli undoshlar 6 o'rinda qatnashgan.

C) Hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir umumiy guruhga mansub bo'lgan jarangli undoshlar 5 o'rinda qatnashgan.

D) Jarangli juftiga ega bo'lgan 2 ta undosh qatnashgan.

18. 1) Chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduradi.

2) Zaharli kinoyalar bilan suhbatdoshini chaqib ola boshladi.

3) Yaxshi emas danakni tishda chaqmoq.

Ushbu gaplarda ishtirok etgan chaq(moq) so'zi haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.

A) Har uchala gapdagi chaqmoq so'zi o'zaro shakldosh so'zlar sanaladi.

B) 2- va 3-gapdagi chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari bo'lib, 1-gapdagi chaqmoq so'ziga nisbatan shakldosh so'zlar sanaladi.

C) 1-va 2-gapdagi chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari bo'lib, 3-gapdagi chaqmoq so'ziga nisbatan shakldosh so'zlar sanaladi.

D) Barcha gaplarda chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari sifatida qo'llangan.

19. Qaysi gapdagi so'zlar imlosida bir o'rinda fonetik o'zgarish kuzatiladi?

A) Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko'yilagiga qadaladigan o'n-o'n beshta tugma sochilib yotibdi.

B) Tabiatga bunday mehrni mening qalbimga onam solib qo'ydi va qalbimda go'zallikni sevish, xushfe'l bo'lish kabi xislatlar uyg'ondi.

C) To'polonda oyog'im lat yeganga o'xshaydi, shuning uchun darrov chiqolmadim.

D) Bolalik inson hayotining shunday poydevoridirki, umr binosining bo'y-basti, salobati unga bog'liq bo'ladi.

20. "Bilimli kishi o'lsa ham, uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham, oti o'likdir".

Mazkur ibratomuz fikrlar kimning qaysi asarida bayon etilgan?

A) Ahmad Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq»

B) Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig»

C) Abu Mansur As-Saolibiy "Yatimat ad-dahr"

D) Abay "Naqliya so'zlar"

21. Chiltanlar vositasida oshiq va ma'shuqa ruhan uchrashadigan xalq dostonlarini aniqlang.

- A) "Alpomish" va "Kuntug'mish" dostoni  
 B) "Rustamxon" va "Ravshan" dostoni  
 C) "Kuntug'mish" va "Ravshan" dostoni  
 D) "Alpomish" va "Rustamxon" dostoni

22. Quyidagi qaysi gapda metafora asosida ma'nosi ko'chgan so'z ega vazifasida kelgan?

- A) Qozonning qulog'i qiyshayib qolgan ekan.  
 B) Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.  
 C) Stol oyog'i pishiq yog'ochdan qilingan.  
 D) Rentgen apparati natijalarini kutyapmiz.

23. Berilgan so'zlardan nechitasi imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan?

- 1) hasad; 2) nataruis; 3) bug'doy rang;  
 4) tayziq; 5) talafot; 6) hasharot

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

24. Paronimi mavjud so'z berilgan javobni toping.

- A) najot B) fidoyi C) qasd D) ta'qib

25. "Qutadg'u bilig"ning Vena nusxasi qayerda, qaysi yozuvda ko'chirilgan?

- A) Turkiyada, arab yozuvida  
 B) Hirotda, arab yozuvida  
 C) Venada, uyg'ur yozuvida  
 D) Hirotda, uyg'ur yozuvida

26. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga sirg'aluvchi jarangsiz lab undoshi yoziladi?

- 1) a...zal; 2) a...tomobil; 3) sha...qat;  
 4) sa...do; 5) a...g'on; 6) mu...affaqiyat

- A) 1, 2, 3, 5 B) 4, 5 C) 1, 2, 3, 5, 6 D) 1, 3, 5

27. Qaysi dostonda ota o'z o'g'lini "nor kalla qo'chqor" deb ataydi?

- A) "Alpomish" B) "Ravshan"  
 C) "Rustamxon" D) "Kuntug'mish"

28. Berilgan gaplarning nechtasida imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan so'z(lar) uchraydi?

- 1) Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranch  
 2) Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganch

ila.

2) Ikki dugona mayizni bir qisimdan bolalarga ulashib chiqdi.

3) Uyishiq bo'laklar sanash ohangi bilan aytiladi.

4) U avvaliga bir oz hayajonlandi-yu, ammo keyin ravon gapira boshladi.

- A) ikkitasida B) to'rttasida  
 C) bittasida D) uchtasida

29. x va h undoshlarining farqlovchi belgilari quyidagi qaysi tasnifda namoyon bo'ladi?

- A) hosil bo'lish o'rniga ko'ra  
 B) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra  
 C) hosil bo'lish usuliga ko'ra  
 D) tarkibiga ko'ra

30. Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit-turk» asarida turklar asli nechta qabila ekanligi aytilgan?

- A) 25 ta B) 24 ta C) 30 ta D) 20 ta

31. Qaysi javobda keltirilgan barcha so'zlar noto'g'ri yozilgan?

- A) ta'qiqlamoq, avf, taqib qildi  
 B) qat'iy, qadamjo, shovilladi  
 C) xoxlamoq, inshoot, hasharot  
 D) ssenariy, konstitusiya, hayit

32. Qaysi javobda hosil bo'lish usuliga ko'ra farqlanuvchi tovushlar orqali paronim juftlik hosil qila oladigan so'z(lar) ko'rsatilgan?

- 1) afzal; 2) adib; 3) hiyla;  
 4) qayt; 5) darz; 6) tanbur

- A) 1 B) 1, 2, 3, 4, 5 C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 6

33. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramonga nisbatan "... zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor. . ." degan ta'rif qo'llangan?

- A) Alpomish B) Rustam  
 C) Ko'kaman D) Ko'kaldosh

34. Xalq og'zaki ijodida mard yigitlar bo'ynidagi mas'uliyat ular ulg'aygan sari ortib borishi haqida ham to'xtab o'tilgan.

Ushbu gapdagi nechta soʻzda tovush tushish hodisasi roʻy bergan?

A) beshta    B) ikkita    C) toʻrtta    D) uchta

35. Koʻzimdan yomgʻirlar toʻkilar tinmay .....  
Ushbu gapda maʼno koʻchishining qaysi turi kuzatiladi?

A) sinekdoxa                      B) vazifadoshlik  
C) metafora                        D) metonimiya

36. “Alpomish” dostonidan olingan ushbu parchada kimning taʼrifi berilgan?

Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan, Ichida chichqonlar bolalab yotgan.

Izidan tushgan pishak oltoyda yetgan, Munday qalmoq qoʻlin bulgʻab keladi.

A) Koʻkaldosh                      B) Qoʻshquloq  
C) Boyqashqa                      D) Koʻkaman

Ustoz: Nargiza Erkaboyeva

Admin: @trenermozga